

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

# JORAI

Journal of


## RESEARCH

and

## INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

*Volume I, Issue 5*



IMFAKTOR  
PAGES

MAY | 2023

ISSN: 2181-4058  
DOI Journal 10.56017/2181-4058

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

1-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ  
ТОМ-1, НОМЕР-5

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS  
VOLUME-1, ISSUE-5

ТОШКЕНТ - 2023

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-5>

## Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

## Таҳририят аъзолари:

Омонов Қ. – филология фанлари доктори, профессор  
Муҳибова У. – филология фанлари доктори, профессор  
Каримов Б. – филология фанлари доктори, профессор  
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент  
Мухамедова Ф. – санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор  
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор  
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор  
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти  
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор  
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор  
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор  
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор  
Миракмалов М. – география фанлари номзоди, доцент  
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент  
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор  
Аскарлов Ш. – архитектура фанлари доктори, профессор  
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

*Филология фанлари*

**MARIPOVA Gulsora**  
Fargʻona davlat universiteti  
Oʻqituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7901100>

## ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ОʻQITISHDA AKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH

### ANNOTATSIYA

Maqolada chet tillarini oʻqitish jarayonida AKT vositalaridan foydalanish vositasi, tilni oʻrganish zarurati, kommunikativ aloqalar borasida fikrlar berilgan.

**Kalit soʻzlar:** maqola, fikr, muammo, chet tili, akt, yondashuv, multimedia, til, kommunikativlik.

**MARIPOVA Gulsoira**  
Ферганский государственный университет  
Учитель

## ИЗ СРЕДСТВ ИКТ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ

### АННОТАЦИЯ

В статье даны размышления о средствах использования ИКТ в процессе обучения иностранным языкам, необходимости изучения языка, коммуникативных коммуникаций.

**Ключевые слова:** статья, мысль, проблема, иностранный язык, ИКТ, подход, мультимедиа, язык, коммуникативность.

**MARIPOVA Gulsora**  
Ferghana State University  
Teacher

## ICT TOOLS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES USAGE

### ANNOTATION

The article provides ideas on the means of using ICT tools in the process of teaching foreign languages, the need to learn a language, communicative communication.

**Keywords:** article, opinion, problem, Foreign Language, ICT, approach, multimedia, language, communicativity.

Tilni o'rganish chog'ida o'quvchi lingvistik bilimlar to'plash bilan emas, balki nutqiy va madaniy malakalari (kompetensiyasi)ni oshirish bilan mashg'ul bo'ladi. Kommunikativ faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida chet til o'rgatiladi.

Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi mul'timedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazida yaratilgan elektron manbalarni namoyish etganda, o'quvchilar yanada jonlanadi. Buning afzal tomoni shundaki, bola slayd orqali nafaqat buyum va narsani ko'rib, tasavvuri boyiydi, balki fransuzcha talaffuz ko'nikmasi ham hosil qilinadi [1, B.4-15].

Xorijiy tilni o'rganishda eng muhim komponent - tinglash, talaffuz qilish, o'qish - yozish hisobladi. Agar bola tog'ri talaffuz qilishni o'rgansa, yozish malakasini ham oson egallaydi. Bir - biriga uzviy bog'liq bu jarayonlarga dars o'tishda e'tibor berilishi kerak. Bolaga o'z ona tili bilan bir vaqtda chet tilini ham o'rgatish katta mehnat talab qiladi. Har bir ta'lim dargohi bu jarayonga an'anaviy va noan'anaviy tarzda yondashadi. Natija esa yillar o'tib ma'lum bo'ladi. Tinglash, gapirish va o'qish - yozish. Xorijiy tilni o'rgatishda o'quvchilarda ushbu malakalarni shakllantirishga alohida e'tibor zarur.

Til odamlarning bir-birlari bilan muomulada bo'lishi uchun yordam beradigan eng muhim vosita hisoblanadi. Odamlar til vositasida o'z fikrlarini, his tuyg'ularini ifodalaydilar. Insoniyat jamiyatning shakllanishida tilning roli biqiyosdir. Til paydo bulgandan jamiyat tez rivojlana boshlagan. Tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til bo'lishi mumkin emas, shuning uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi, ya'ni til yakka odamga emas, balki butun jamiyatga daxldor bo'lib, shu jamiyat a'zolari yordamida shakllanib, rivojlanib boradi [2, B.19].

Chet tillarini samarali o'rganish, yangi lug'at boyligini yanada osonroq o'zlashtirish masalasi ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsada, doim dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Bugungi jahon glaballashuvi davrida zamon talabi bilan mazkur masalaga bunday yondashilishi albatta tabiiy holdir. Ko'pincha chet tilini o'rganishda bilingval ta'limni tashkil etilishi bir necha chet tillarini chuqurlashtirib o'rganishga imkon beradi. Ba'zan chet tillarini o'rganishga ajratilgan dars soatlari va maxsus darsliklar soni darsni o'zlashtirishga yetarli darajada bo'lmasligi muammolariga duch kelinadi. Mazkur muammolar yechimini topishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va Internet tarmog'idagi resurslar muhim o'rin tutadi.

O'quvchi-yoshlarning darsga qiziqishini oshirishda AKT va Internet tarmog'idagi resurslar ta'lim samarasini va shu jumladan, til o'rganishga motivatsiyani oshiruvchi omil bo'la oladi. AKT vositasida o'qituvchi o'z xususiy elektron ta'limiy resurslarini yaratib borishi imkoniyati mazkur soha rivojida muhim ahamiyatga molik [3, B.45].

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, agar o'quvchi o'z ona tilini yaxshi bilsa, qonun-qoidalariga amal qilish malakasiga ega bo'lsa, uning mavjud lingvistik tajribasi boshqa chet tilini o'zlashtirishiga ham zamin bo'ladi. Tilning grammatik tushunchalarini va atamalarini tezroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Shu tariqa, tillararo o'xshashlik va farq qiluvchi omillarini o'rganib, boshqa tilni oson o'zlashtiradi. Fonetik, leksik, grammatik darajada til hodisalarini solishtirish lingvistika sohasini boyituvchi material beradi. Shu boisdan, tillararo qiyosiy tahlil muhim ahamiyatga molik. Bu chet tilidagi yangi materialni shunchaki o'zlashtirishgina emas, balki unga o'quvchi-talabalarda alohida qiziqish bilan yondashuvni ham ta'minlaydi [3, B.67].

Agar o'quvchi bir tilning qoidalari va asosiy tushunchalarini yaxshi bilsa, boshqa tilni ham o'rgana olishiga ishonch bilan qaraydi. Shaxsning lingvistik bilimlarni egallab borayotganligi go'yo ilmiy yangiliklarni o'z ongida kashf etib borayotgandek, ham qiziqarli, ham yanada ko'proq bilish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Bu borada dars jarayonida o'qituvchi tillar orasidagi farqlar va o'xshashliklarni tushuntirib borishi ham katta ahamiyatli o'rin tutadi, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan, elektron resurslardan foydalanib, dars o'tilishi o'quvchi-talabalarga darsni oson o'zlashtirish va tilning leksik hamda grammatik hodisalarini qiyosiy o'rganib, turli mashqlarni bajarishda katta imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, keyingi davrlarda ko'payib borayotgan til o'rganishga oid maxsus saytlar nafaqat murakkab va zerikarli bo'lgan til o'rganish - leksik birliklarni o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi, balki mazkur resurslar yordamida ko'ngilochar o'yinli mashqlarni zavqlanib bajarish bilan ma'lum ma'noda ma'naviy oziqa, qolaversa, dam olish imkonini yaratishiga ham e'tibor qarash zarur. Bunday elektron lug'atlarga [www.lingualeo.ru](http://www.lingualeo.ru) va boshqalar misol bo'la oladi. Shu bilan birga, bunday lug'atdagi har bir so'z foydalanuvchiga ko'p bor qayta taqdim etilishi mumkin, bu esa uni o'zlashtirishda mazkur so'zning to'g'ri yozilishi, tilda so'zlashuvchi xalq vakillari tomonidan leksik talaffuzi xotirada mustahkam joylashib, matnlarni tarjima qilishda qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi [4, B.89].

Ma'lumki, zamonaviy yoshlar o'z davrining madaniyati vakillari bo'lib, ularga ko'proq vizual obrazlar ta'sir ko'rsatadi, boshqacha aytganda, material an'anaviy usulda emas, balki audiovizual vositalar yordamida yanada tezroq va samarali o'zlashtiriladi. Masalan, tilda so'zlashuvchi mamlakat haqidagi mavzu odatda, an'anaviy usulda bir necha rasmlardan iborat matndan foydalanib, o'qitilgan. Ushbu usul doim ham kutilgan natijani bermagan.

Zamonaviy ta'lim usullarida esa mazkur muammoni hal etishga o'zining autentikligi, ko'rgazmaliligi va interaktivlik baxsh etuvchi Power Point dasturida tayyorlangan taqdimotlar, filmlar, slayd-shou, shuningdek, virtual sayohatlar, internet-saytlar yordam beradi. AKT vositalaridan foydalanib, dars o'tish jarayonida chet tilida videosujet namoyish etish yanada ko'proq samarali bo'ladi. O'quvchilar zavq bilan tomosha qiladilar va topshiriqlarni qiziqib bajaradilar.

Natijada filmlarni o'z original tilida ko'rib, tilni o'zlashtirishlari oson bo'ladi. Biroq filmlarni to'liq tomosha qilish juda ko'p vaqtni olishi, bunga esa darsga ajratilgan vaqt imkoniyati yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli ham Internet-resurslaridan uyda ham foydalanib, tarmoqdan foydali axborotlarni olish, masalan: MOOC (Massive Open On-line Courses) ni tavsiya etish mumkin. Shuni ham unutmaslik kerakki, Internet haqiqiy til muhitini his etishga yordam beradi va uning yordamida tilni o'rganishga ehtiyoj shakllanadi. Sababi til tashuvchi, ya'ni mazkur tilda so'zlashuvchilar bilan muntazam muloqotda bo'lishga to'g'ri kelishi, turli axborotlardan foydalanish, filmlar tomosha qilish, qo'shiqlarni tushunish istagi paydo bo'lishi mumkin [5, B.34].

Bularning barchasi o'quvchi-yoshlarning chet tillarini AKT vositasida o'rganishga qiziqishlarini oshiradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, chet tili darslarida AKTdan ijodiy foydalanish nafaqat o'quvchilarda o'qishga qiziqish, fanni o'rganishga motivatsiyasini oshirish va ayrimlar uchun zerikarli bo'lgan leksik-grammatik materialni yanada qiziqarli jarayonga aylantirishga yordam berishi, shuningdek, chet tilida o'zaro muloqot qilish, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishi, bundan tashqari, o'quv jarayonining reproduktiv faoiyatining ulushini qisqartirishi hamda umuman muhim omil sifatida o'rin tutishi namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, elektron ta'limiy resurslarning ko'pchiligi o'quvchilarning mustaqil bilim egallashiga, malaka orttirishiga, chet tilini yanada chuqurroq o'rganish uchun intilishni rag'batlantiradi.

Umumta'lim maktabi yoki oliy ta'lim muassasasini bitirgandan keyin ham o'z bilim doirasini kengaytirishlarida yordam beradi. Yuqoridagilarni nazarda tutib, har qanday salohiyatli o'qituvchi chet tili bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishi, mahorat saboqlari (master classlar) yoki ochiq darslar o'tishda, albatta, AKT vositasida yanada samaraliroq foydalanishini targ'ibot qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, AKT o'quvchi-talaba yoshlarni muntazam ravishda bilim va malakalarini oshirishga undovchi muhim omilga aylanadi. Mazkur omil zamon bilan hamqadam, yetuk mutaxassis shaxs sifatida muvaffaqiyatli inson bo'lishni maqsad qilgan har bir inson uchun juda zarurdir. Ingliz tilida gapirishni o'rganish qiyin, hatto ingliz tilini bir necha yillar davomida o'rgangan kishilar ham tilni gapirishga kelganda ancha qiynalishadi. Ingliz tilini kirish imtihonlaridagi testlardan o'tish uchun, yoki gapirishdan boshqa sabablarga ko'ra o'rgangan kishilar til grammatikasini, qoidalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi mumkin. Ammo bunday o'rganuvchilar uchun ingliz tilida gapirish ko'pincha oson kechmaydi. Ushbu maqolada qanday qilib ingliz tilida ma'lum darajadagi bilimga ega bo'lgan holda tez va ifodali gapirish ko'nikmasini rivojlantirish haqida yozmoqchiman. Fikrimcha, ingliz tili grammatikasidan xabardor bo'lgan, ammo gapirishga qiynaladigan o'rganuvchilarning ko'pchiligi ushbu sohada o'z ko'nikmalarini imkon qadar rivojlantirishni juda xohlashadi.

**IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES**

1. Borzova E.V. Katta sinflarda chet tili darslarida juftlik va guruh ishlari / E.V. Borzova // Til. Nutq. Aloqa. - 2000. - 4-son. - B.4-15.
2. Lyudis V. Ya. Innovatsion ta'lim va fan. - M., 1992 yil. Federal davlat ta'lim standartining ikkinchi avlodini amalga oshirish uchun asos sifatida chet tillarini o'qitishga innovatsion yondashuvlar <http://www.surwiki.ru/wiki/index.php/>
3. Slastenin V. A., Podimova L. S. Pedagogika: innovatsion faoliyat. - M., 1997 yil.
4. Polat E.S. Chet tili darslarida loyihalar usuli / E.S. Po'lat // Inostr. maktabda tillar. - 2000. - N 2. - S.3-10; N 3. - S.3-9. XXI asrda chet tilini o'rgatish: muammolar va istiqbollari: Vseros materiallari. ilmiy-amaliy. konf. - M., 1998. - 120 b.

ISSN: 2181-4058  
DOI Journal 10.56017/2181-4058

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 5-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ  
ТОМ-I, НОМЕР-5

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS  
VOLUME-I, ISSUE-5

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)